

TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Igamov Sobir Salimovich

Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti Amaliy fanlar va sport kafedrası dotsenti.

sobirigamov72@gmail.com,

Matluba Toshova Abduvoit qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti Tasviriy san'at va texnologik ta'lim kafedrası assistenti.

Samarqand davlat pedagogika instituti asistenti.

matlubatoshova056@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19635738>

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta'lim jarayonida o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishning pedagogik muammo sifatidagi dolzarbligi, nazariy asoslari va amaliy jihatlari yoritilgan. Shuningdek, ekologik kompetentlikni rivojlantirish zarurati, etnopedagogik yondashuvning o'rni hamda uzluksiz ta'lim tizimidagi muammolar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ekologik madaniyat, ekologik kompetentlik, ta'lim jarayoni, etnopedagogika, ekologik tarbiya, barqaror rivojlanish.

Kirish

Hozirgi globallashuv davrida ekologik muammolarning keskinlashuvi insoniyat oldida dolzarb vazifalarni qo'yimoqda. Xususan, energiya taqchilligi, tuproq eroziyasi, suv resurslaridan noto'g'ri foydalanish, atrof-muhitning ifloslanishi kabi muammolar nafaqat inson hayoti, balki butun biosferaga tahdid solmoqda. Shu bois ekologik ong va madaniyatni shakllantirish XXI asr pedagogikasining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mavzuni dolzarbligidan kelib chiqqan holda biz kelgusi avlodga ekologik madaniyatni shakllantirishga oid ekologik ta'lim- tarbiya jarayonini umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quv jarayonidan boshlash zarur degan xulosaga keldik.

Ekologik taim-tarbiya - bu ekologik bilim va ko'nikmalarni egallashning maqsadga yo'naltirilgan, tashkillashtirilgan, rejali va tizimli amalga oshirish jarayonidir [9. - B.49-50].

Bugungi kunda, "ekologik muammolarning keskinlashuvi fuqarolarning ekologik bilim, ko'nikma va kompetensiyasiga bo'lgan ehtiyojlarini oshirmoqda" [5, B.147]. Bu esa o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishni pedagogik muammo sifatida ko'rib chiqishni talab etadi.

Metodologiya

Mazkur tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- ilmiy-nazariy manbalarni tahlil qilish;
- pedagogik kuzatish va umumlashtirish;
- tarixiy va qiyosiy tahlil;
- kompetensiyaviy yondashuv asosida tahlil.

Mavzuga oid ilmiy tadqiqotlar (A.N. Zaxlebniy, I.D. Zverev, Ye.M. Kudryavseva va boshqalar) natijalari o'rganildi. Ularning ishlarida o'quvchilarda tabiatga mas'uliyatli munosabatni shakllantirishning nazariy asoslari yoritilgan [7, B.127].

Natijalar

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, jamiyat va tabiat o'rtasidagi nomutanosiblik insonlarda ekologik madaniyat yetarli darajada shakllanmaganligini ko'rsatadi. Shu bois ta'lim tizimida ekologik tarbiya ustuvor yo'nalishga aylanishi zarur.

Ekologik madaniyat quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi:

- ekologik bilim;
- ekologik ong;
- ekologik xulq-atvor;
- tabiatga mas’uliyatli munosabat.

Ekologik kompetentlik zamonaviy ta’limning muhim natijasi hisoblanadi. U shaxsning atrof-muhitni asrash va muammolarni hal qilishda bilim va tajribani qo‘llash qobiliyatini anglatadi.

“Ekologik kompetensiya – bu atrof-muhitni saqlash va yaxshilash uchun bilim va tajribani samarali qo‘llash qobiliyatidir” [4].

Etnopedagogik yondashuv ekologik tarbiyada muhim o‘rin tutadi. “Avesto”, “Qur’oni Karim” va hadis manbalarida tabiatni muhofaza qilishga oid g‘oyalar keng yoritilgan.

Masalan, “Avesto”da yer, suv, havo va olov muqaddas deb qaralgan va ularni ifloslantirish jinoyat sifatida baholangan [3, B.55-56].

Shuningdek, hadisda: “Yenglar, ichinglar, isrof qilmanglar” degan hikmat ekologik muvozanatni saqlashga undaydi.

Markaziy Osiyo mutafakkirlari ham ekologik tarbiya masalasiga katta e’tibor qaratgan.

Xususan:

• Abu Rayhon Beruniy tabiat va inson o‘rtasidagi bog‘liqlikni ilmiy asoslab bergan [1, B.47];

• Abu Ali ibn Sino ekologik omillarning inson salomatligiga ta’sirini ko‘rsatgan [2, B.190];

• Alisher Navoiy tabiatga ehtiyotkorona munosabatni targ‘ib qilgan [168, B.57].

Tahlillar quyidagi muammolar mavjudligini ko‘rsatdi:

- ekologik ta’limning uzviy tizimi yetarli darajada shakllanmagan;
- fanlararo integratsiya sust;
- etnopedagogik yondashuv yetarlicha qo‘llanilmayapti;
- ekologik kompetentlik mezonlari to‘liq ishlab chiqilmagan.

Ekologik madaniyatni shakllantirish faqat nazariy bilim bilan cheklanib qolmasligi kerak.

U amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashgandagina samarali bo‘ladi.

Ekologik ta’lim quyidagi shakllarda samarali tashkil etiladi:

- ommaviy (konferensiya, ekologik aksiya);
- guruh (dars, amaliy mashg‘ulot);
- individual suhbat, maslahatlar [8].

Shuningdek, interfaol metodlar ekologik kompetentlikni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi [186].

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi nuqtai nazaridan ekologik ta’lim zamonaviy mutaxassis tayyorlashning ajralmas qismiga aylanishi zarur [6].

Xulosa

Tadqiqot natijalariga ko‘ra quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Ekologik madaniyatni shakllantirish zamonaviy ta’limning ustuvor pedagogik muammosidir.
2. Ekologik kompetentlikni rivojlantirish uzluksiz ta’lim tizimida kompleks yondashuvni talab etadi.
3. Etnopedagogik yondashuv ekologik tarbiyaning samaradorligini oshiradi.
4. Ta’lim jarayonida fanlararo integratsiya va interfaol metodlardan keng foydalanish zarur.

5. Ekologik ta'limning nazariy va metodik asoslarini yanada takomillashtirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. -T.: "Fan", 1968. - B. 485.
2. Abu ali ibn Sino. Tibbiy o'g'itlar. - T.: "Mehnat". 1991.-B . 190.
3. Avesto. Tarixiy - adabiy yodgorlik / N. Jo'rauev; Asqar Mahkam tarjimasi. -T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015. - B. 732
4. Nasrutdinova L.S. Activities-Based Teaching to Build Environmental Competence of Students. Tumen, Technological methods and techniques in engineering education. 13, 2013/. pp.70-73
5. Tursunov H.T., Raximova T.U. EkologiY. O 'quv qo'llanma. -T.: "Chinor ENK" ekologik nashriyot kompaniyasi, 2006. - B. 147
6. Yulia Grishaeva, Alexander Gagarin, Iosif Spirin, Zinaida Tkacheva, Natalia Evstafieva, and Oleg Napolov. Ecological culture of students in the trends of the Concept of sustainable development. E3S Web of Conferences 265, 07003,2021.
7. Отношение школьников к природе // под ред. И.Д.Зверев, И.Т.Суравегиной. -М.: Педагогика, 1988. - с. 127
8. Чопенко Л.С. Развитие творческих способностей учащихся в процессе формирования экологической компетентности / Л.С. Чопенко // Совершенствование учебно-воспитательного процесса в образовательном учреждении сб науч трудов 4 2/ науч ред Е Г Замолоцких - М МГТУим М.А. 135 Шолохова, 2007 - С 100-104.
9. Соломкина М. А. Экологическое сознание: понятие, типология, интерпретация // М.: Экология человека. - 2000. - № 2. - С. 49-50